

**EZOP MASALLARINING TARBIYAVIY MAQSADGA  
YO'NALTIRILGANLIGI**

*Xummedova O'g'ilnavot Mavlanberdiyevna*

*Nukus davlat pedagogika instituti 4-kurs talabasining tezisi*

**Annotatsiya:** Ezop masallari g'oyaviy jihatdan tushkunlik va umidsizlik ruhida yozilgan, personajlar (asosan, hayvonlar) o'ta shartli voqealari ixcham bayon qilingan, tili sodda, jonli tilga yaqin. Ezop masallari syujeti Yevropa masalchiligi syujetining asosini tashkil etgan Lotin masalchisi Fedr (1-asr) va yunon masalchisi Babriy (2-asr) dan tortib fransuz J.Lofonten va rus Ivan Krilovgacha Ezop masallari syujetini davrga moslab ijodiy rivojlantirganlar.

**Kirish so'zlar:** Masal, "Dehqon va uning bolalari", "Qurbaqalar" masallari;

Masal-majoziy xarakterdagi qisqa hikoyacha bo'lib, nasriy yoki she'riy shaklda yoziladi. Uning asosiy qahramonlari hayvonlar, narsa-buyumlardan iborat. Bular ramziy-majoziy ma'noda qo'llanilib, insonlar fe'l-atvoridagi turli xususiyatlariga ishora sifatida keltiriladi. Masalning asosiy jihati shuki, u to'liq ma'noda tarbiyaviy maqsadga yo'naltiriladi. Ezop birinchi masalchi hisoblanadi, undan so'ng eramizning birinchi va ikkinchi asrlarida yashab o'tgan grek masalchilari Fedr, Babriy tom ma'noda uning davomchilaridir. Fedrning masalchilik rivojidagi asosiy xizmati Ezop masallarini she'riy yo'l bilan lotin tiliga tarjima qiladi. Ana shu tarjimalarga suyanib va ilhomlanib XVII asrda Fransiyada Lafonten, XVIII asrda germaniyada Lessing, Gellert va XVIII-XIX asrlarda Rossiyada I.Krilov masal janrida barakali ijod qiladi.(G'.G'ulom, 2010)

Ezopning masallari tili sodda va jonli tilga yaqindir. Uning "Dehqon va uning bolalari", "Qurbaqalar", "Ho'kizlar va aravaning o'qi", "Borey va quyosh", "

Podachi" singari ko'plab masallari tarbiyaviy maqsadga yo'naltirilgan va voqealar ixcham bayon qilingan.

"Dehqon va uning bolalari" masalida vaqt qazosi yetib qolganino sezgan bir keksa dehqon o'zidan keyin bolalarining yaxshi mirishkor dehqon bo'lib, yaxshi hayot kechirishlarini xohlabdi-da, ularni o'z qoshiga chorlab shunday debdi: "Bolalarim, bog'imizdagi toklarning tagiga men xazina ko'mganman". Chol qazo qilibdi, o'g'illari uni dafn etib kelib, darhol belkurak va ketmonlar bilan butun bog'ni kovlab, chopib chiqishibdi, ammo hech qanday xazina topmabdilar. Vale yaxshi ishlov berilgan toklar ko'z ko'rib, quloq eshitmagan bemisl mo'l hosil keltiribdi.

Ushbu masalda mehnat orqali hamma narsaga erishish mumkinligini, mehnatning mevasi-odamlar uchun xazina ekanligini anglashimiz mumkin va bolalarni, kitobxonlarni mehnatga da'vat etadi.

"Qurbaqalar" masalida ikkita qurbaqa o'z maskanlari bo'lmish ko'lmakda suv qurib qolganidan keyin boshqa suvli yerni qidirib yo'lga tushadilar. Mana ular bir quduq oldiga keladilar: shunda birinchi qurbaqa: "Kel, tezroq quduqqa sakrab tushaqolaylik-o'ylab o'tiramizmi?" deydi. Lekin ikkinchi qurbaqa homrohiga javoban shunday deydi: " Bordi-yu bu yerda ham suv qolmasa, quduq ichidan qanday chiqamiz?" deya mulohaza qiladi.

Bu masalda biz har qanday ishga kirishishimizdan oldin qilmoqchi bo'lgan ishimizni puxta mulohaza qilib ko'rmog'imiz lozimligini anglab yetishimiz mumkin.

"Ho'kizlar va aravaning o'qi" masalida bir juft Ho'kiz yuk ortilgan aravani tortib borardi, aravaning o'qi esa tinmay g'ijirlardi. Shunda Ho'kizlar boshlarini o'girib dedilar: "Ey o'q! Axir butun og'ir yukni tortib ketayotgan bizlar-ku, sen nega ingraysan?"

Ushbu masalda ba'zi odamlar ham shunaqaligini, ter to'kib ishlaydiganlar boshqa-yu, ular o'zlarini ishlayverib qiynalib ketgandek qilib ko'rsatadiganlarni anglab olishimiz mumkin.

Ko'rinadiki, Ezop masallari hayotiyiligi bilan odamlarning fazilat-u nuqsonlari, qusur-kamchiliklari, noto'g'ri xatti-harakatlarini aniq ko'rsatib berib olgani, ma'naviy ibratini bilan hozir ham o'z ahamiyatini to'la saqlab kelmoqda. Ezop masallarining dunyoda ko'plab tillarga tarjima qilinishi ham be'jizga emas, albatta.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ezop masallari.- T:G'.G'ulomov nomidagi nashiryot matbaa ijodiy uyi, 2010
2. N.Hatamov, B.Sarimsaqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati.-T:"O'qituvchi",1989.
3. Q.Mirhamedov "Ezop masallari" tarjimasi.